



**ANDIJON VILOYATIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**
*2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

24 823



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

2 798



Oilaviy korxona

218



Unitar korxona

6 581



Xususiy korxona

40




Aksiyadorlik jamiyati

419




Boshqa korxonalar

Mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik



Xususiy korxona
birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-sentabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 6 479 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4 740 ta, oilaviy korxonalar – 1 293 ta, xususiy korxonalar – 294 ta, muassasalar – 76 ta va boshqalar – 76 ta tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofimalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi (1- oktabr holatiga ko'ra)




Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

O'rmon xo'jaligi

Baliq xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 8 111 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,1 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 25,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,2 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 10,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,4 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 37,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 8,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) o'sishidir.

Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **25,1** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari



25,1 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



23,5 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




2,9 martaga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **9,3** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



13,0 foizga kamaydi




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,4** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




4,3 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




11,9 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




77,8 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **16,7** foizga oshdi



Xususiy korxonalar




24,0 foizga kamaydi



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3 013 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – fuqarolik obyektlarini qurish o'tgan yilga nisbatan – 36,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,9 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari o'tgan yilga nisbatan – 29,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 29,2 %) o'sishidir.

Bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan – 93,3 % ni (jami qurilishdagi ulushi 62,9 %) tashkil etadi.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 9 744 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,2 % ga oshdi. Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 22,4 % ga (jami savdodagi ulushi 65,8 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 45,5 % ga (jami savdodagi ulushi 7,0 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 10,3 % ga (jami savdodagi ulushi 27,2 %) o'sishidir.




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofimalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,8** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




19,2 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




24,8 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




50,0 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **2,5** martaba oshdi



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan **100,0** foiz



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

818



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

17



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

7



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



121

Yashash bo'yicha xizmatlar




1 621

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 742 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,4 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 14,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,1 %), yashash bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 27,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,9 %) o'sishidir.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2019- y. ■ 2020- y.

2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni 538 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,2 % ni tashkil qiladi.

Jami axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonidan, noshirlik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 100,0 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 8,2 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 97,7 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 31,0 %), kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 78,6 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 4,1 %), aloqa xizmatlari – 89,8 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 44,2 %) tashki etadi.

Axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 18,8 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,6 %), dasturlar tuzish va teleradio-eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 11,1 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,9 %) o'sgan.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 10- yanvardagi "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 17- son qaroriga muvofiq **IT-PARK** ishga tushdi.


IT-PARK maqsadi:

-yosh iqtidor egalari g'oyalarini istiqbolli biznes loyihalariga aylantirishga ko'mak beradigan maskan;


-yuridik shaxslarni uning rezidentlari sifatida ro'yxatdan o'tkazish, soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash tartibini belgilash, "startap-loyihalar"ni har tomonlama, shu jumladan, venchur moliyalashtirish asosida qo'llab-quvvatlash.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



Oilaviy korxonalar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 2 798 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 948 taga yoki 3,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 397 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 575 taga yoki 2,9 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 293 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 017 taga yoki 4,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 24 823 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 343 taga yoki 27,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 22 758 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 845 taga yoki 20,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 740 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 800 taga yoki 20,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	12 022	13 534	15 133	18 913	22 758
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	868	973	1 035	1 226	1 531
Sanoat	2 967	3 288	3 818	4 749	5 864
Qurilish	1 440	1 492	1 705	2 254	2 523
Savdo	3 508	4 166	4 439	5 693	7 221
Tashish va saqlash	670	732	903	1 095	1 175
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	687	724	794	976	1 124
Axborot va aloqa	210	263	271	321	353
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	201	243	384	475	593
Boshqa turlar	1 471	1 653	1 784	2 124	2 374

**Andijon viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Mamlakatlar	Jami	shundan:	
			qo'shma korxona	xorijiy korxona
1	 Rossiya Federatsiyasi	73	41	32
2	 Qirg'iz Respublikasi	35	16	19
3	 Belarus Respublikasi	7	5	2
4	 Qozog'iston Respublikasi	6	2	4
5	 Ozarbayjon Respublikasi	5	2	3
6	 Ukraina Respublikasi	3	0	3
7	 Tojikiston Respublikasi	2	1	1
8	 Turkmaniston Respublikasi	1	1	0

O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	151	167	201	286	332
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3	6	11	25	26
Sanoat	117	128	145	172	188
Qurilish	6	7	7	18	21
Savdo	9	9	18	33	43
Tashish va saqlash	3	3	2	2	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	6	7	6	9
Axborot va aloqa	0	0	0	5	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	2	1	2	5
Boshqa turlar	6	6	10	23	31

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Andijon viloyati	332	185	147
Oltinko'l	17	13	4
Andijon	26	19	7
Baliqchi	8	2	6
Bo'ston	7	4	3
Buloqboshi	11	7	4
Jalolquduq	11	7	4
Izboskan	8	5	3
Ulug'nor	7	5	2
Qo'rg'ontepa	7	5	2
Asaka	19	13	6
Marhamat	15	7	8
Shahrixon	25	11	14
Paxtaobod	7	4	3
Xo'jaobod	13	9	4
Andijon sh.	134	64	70
Xonobod sh.	17	10	7

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahrida 134 ta (jamidagi ulushi 40,4 %), Andijon 26 ta (7,8 %), Shahrixon 25 ta (7,5 %), Asaka 19 ta (5,7 %), Xonobod shahri va Oltinko'l tumanlarida 17 tadan (5,1 %), Marhamat 15 ta (4,5 %), Xo'jaobod 13 ta (3,9 %) hamda Buloqboshi va Jalolquduq tumanlarida 11 tadan (3,3 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Andijon shahri (31,3 %), Asaka (9,0 %), Shahrixon (7,1 %), Andijon (7,0 %), Qo'rg'ontepa (5,1 %), Oltinko'l (5,1 %), Izboskan (5,0 %), Baliqchi (4,8 %), Marhamat (4,6 %), Jalolquduq (4,1 %), Paxtaobod (3,7 %), Xo'jaobod (3,6 %), Buloqboshi (3,0 %), Bo'ston (2,8 %), Ulug'nor (2,0 %) tumanlari va Xonobod shahri (1,8 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Andijon shahri (25,0 %), Asaka (9,1 %), Shahrixon (7,3 %), Andijon (6,0 %), Baliqchi (5,8 %), Jalolquduq (5,6 %), Izboskan (5,3 %), Oltinko'l (5,0 %), Qo'rg'ontepa (5,0 %), Xo'jaobod (4,8 %), Marhamat (4,6 %), Paxtaobod (4,4 %), Buloqboshi (4,1 %), Bo'ston (4,0 %), Ulug'nor (2,3 %) tumanlari va Xonobod shahri (1,7 %) ulushiga ega.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Andijon shahri (36,1 %), Shahrixon (7,2 %), Asaka (7,2 %), Andijon (6,4 %), Izboskan (5,0 %), Oltinko'l (4,6 %), Xo'jaobod (4,5 %), Baliqchi (4,4 %), Qo'rg'ontepa (4,3 %), Marhamat (4,2 %), Paxtaobod (3,9 %), Jalolquduq (3,9 %), Buloqboshi (2,8 %), Ulug'nor (1,8 %) Bo'ston (1,7 %) tumanlari va Xonobod shahri (2,0 %) hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi


(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar bo'yicha soni



(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Andijon shahri (28,2 %), Asaka (19,5 %), Bo'ston (12,8 %), Qo'rg'ontepa (8,9 %), Andijon (6,3 %), Shahrixon (5,8 %), Buloqboshi (4,0 %), Oltinko'l (3,3 %), Izboskan (2,8 %), Jalolquduq (2,4 %), Xonobod shahri (2,2 %), Baliqchi (1,6 %), Paxtaobod (1,4 %), Xo'jaobod (0,5 %), Ulug'nor (0,2 %) va Marhamat (0,1 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi
Tel.:74 228-29-74